



**“NUTQ O‘STIRISH” VA “ONA TILI VA O‘QISH SAVODXONLIGI”  
DARSLARI VA “ESHITISH USTIDA ISHLASH VA TALAFFUZNI  
SHAKLLANTIRISH” MASHG‘ULOTLARI INTEGRATSIYASINI  
TAMINLASH METODLARI**

*Ro‘ziyeva Nozimaxon*

*Andijon davlat pedagogika instituti*

*3-kurs talabasi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada bolalarda nutqni o‘stirish, ularda nutq madaniyatini rivojlantirish, o‘qish savodxonligini yangi metodikalar asosida shakllantirish va shu bilan birgalikda ularda tovushlarni to‘g‘ri talaffuz qilishlari uchun ma‘lum meyyorlarga amal qilgan holda kerakli mashg‘ulotlarni amalga oshirish, bolalarda eshitish ustida ishlash va uning natijasida nutqni shakllantirishning yangi metodikasini yaratish haqida bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: Tovush, nutqiy aloqa, nutqiy eshitish, nutqiy nafas, tafakkur, o‘yin faoliyati, nutq ravonligi sifati, harflar talaffuzi, nutqning ifodaliyligi, nutqda fikrning shakllanishi, butun nutq tizimi.

**Kirish.** “Yoshlar va bolalarga etibor va amaliy g‘amxo‘rlik ko‘rsatish, ularni jismoniy va ma‘naviy barkamol etib tarbiyalashga alohida ahamiyat qaratmoqdamiz. Bolalarni kichik yoshdan boshlab rivojlantirish orqali kelajakda ularning o‘zligini to‘la namoyon etishga mustahkam zamin yaratayapmiz. Zero, bu ezgu maqsadimiz yo‘lida sarflangan investitsiyalar ertaga bir necha barobar ortig‘i bilan qaytishiga shubxa yo‘q”.

Shavkat Mirziyoyev.

Darhaqiqat, prezidentimiz tomonidan aytilgan bu so‘zlar bugungi yosh avlodlarni barkamol qilib, kelajak uchun mustahkam bir poydevor yaratishga zamin yaratadi.



Hozirgi yosh avlodlarning nutqini o‘stirish, ularga talim va tarbiya tushunchasini singdirish har birimizning muhim vazifamizdir.

Maktabgacha talim muassasasida ta’lim olayotgan bolalarda nutqni o‘stirish, ularning o‘qish savodxonligini yanada takomillashtirish, ularda mavjud bo‘lgan eshitish bilan bog‘liq bir qancha muammolarni bartaraf etish hozirgi kunda eng muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

**Asosiy qism.** Bolalarda nutqni o‘rganishdan avval nutq o‘zi nimaligi haqida to‘xtalib o‘tsak. Nutq - kishi faoliyatining turi, til vositalari asosida tafakkurning ishga solinishidir. Nutq o‘zaro aloqa va xabar funksiyasini, o‘z fikrini his – hayajon bilan ifodalash va boshqalarga tasir etish vazifasini bajaradi. Yaxshi rivojlangan nutq jamiyatda kishining aktiv faoliyatining muhim vazifalaridan biri sifatida xizmat qiladi. Nutqning orqada qolishi bola rivojlanishida qator kamchiliklarni yuzaga kelishiga zamin yaratadi. [II : 7-bet]

Maktabgacha tarbiya yoshidagi aqli zaif bolalarda nutq o‘stirish muammosiga bag‘ishlangan ko‘pgina ilmiy tadqiqotlarda ko‘rsatilishicha , bu xildagi nuqsonli bolalarda dastlabki nutqiy ko‘rinishlar guvurlash davrining bo‘lmasligi yoki kechikishi ; dastlabki so‘zlarning kechikib hosil bo‘lishi , so‘z birikmalarini egallash davrining sekin va qiyinchilik bilan kechishi ; so‘zlardan sodda gaplarni tuzish uchun uzoq vaqt talab etilishi ; nutqiy ijodiyotda mustaqillikning yetishmasligi ; fonetik kamchiliklarning uchrashi ; nutqiy faollik darajasining pastligi ; nutqiy muloqot kambag‘alligi kuzatiladi.

Maxsus maktabgacha tarbiya muassasalarining oldida bolalar nutqini o‘stirish vazifasi turadi. Bunda aqli zaif bolalarga o‘z fikrini, istak – orzusini, hissiyotini aniq ifoda etish , ona tilida kishilar bilan aloq o‘rnatishda, hayotga o‘rganish jarayonida foydalanishga o‘rgatish , aqliy jihatdan kamchiliklarni bartaraf etish, ijtimoiy hayotga moslashtirish, hamda yordamchi maktab ta’limiga tayyyorlashdan iborat.



Nutqning tovush madaniyatiga doir bir qacha vazifalari : tovush talaffuzi, sur'ati, diksiya, tasviriyik, va boshqalarni amalga oshirishdagi asosiy yo'l, ishning frontal shaklidir. Bundan bolalar bog'chasining hamma guruhlarida foydalaniladi .Bu ish avvalo mashg'ulot shaklida amalga oshiriladi va unga har xil mazmundagi mashqlar kiritiladi.

Bolalar nutqini to'g'ri rivojlantirish uchun :

a) Nutq o'stirishga doir tevarak – atrof obektlarini oldindan ajratish va ular bilan tanishtirish ;

b) Bolalarning eslab qolishi va to'g'ri talaffuz etishi , so'zlashganda tez – tez foydalanishi , ahamiyatini tushunishi zarur bo'lgan so'zlarning tahminiy ro'yxatini tuzish lozim. Maktabgacha katta yoshdagi bolalarning faol lug'atini boyitishda ularni tevarak – atrof bilan tanishtirish muhim vosita hisoblanadi.[ I : 11-bet]

Ma'lumki , maktabgacha katta yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirish faolyatining har xil turlarida amalga oshiriladi :

- tabiat obektlari bilan tanishtirish mashg'ulotlarida;
- badiiy asarlar bilan tanishtirish mashg'ulotlarida ;
- savod o'rgatishda;
- o'yin faoliyatida;
- ijtimoiy foydali mehnat jarayonida turli ishlarning bajarilishida.

[I:14-bet]

Bolalarning nutqini o'rganishning eng qulay usuli , shubxasiz , suhbat metodi hisoblanadi. Shuningdek , bolalarning tevarak – atrofda mavjud bo'lgan narsalarni kuzatish va ularni tahlil qilish, ular haqida so'zlarda uyushtirilgan savol - javoblar ham muhimdir. Shu bilan birga, bolalarning bog'lanishli nutqini o'rganishda ularning tarjimai holi yuzasidan olib boriladigan kuzatishlar ham muhim ahamiyat kasb etadi.



Bolalarning nutqini rivojlantirish uchun ma'lum bir tizimda ish olib borish maqsadga muvoffiq. Buning uchun bog'cha yoshidagi katta bolalarda nutqni o'stirish dasturini takomillashtirish va uni bir butun yaxlit jarayon sifatida tarbiya tizimiga kiritish hamda mazmunini belgilash zarur.

Maktab yoshidagi bolalarni o'qitish ham muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Maktabda o'quvchilar nutqini o'stirishda ona tili o'qitishning asosiy vazifasi deb qaraladi. Chunki bola qancha ko'p kitob mutolaa qilsa uning tafakkuri bilan bir qatorda nutqi ham rivojlanib boradi. Og'izdan chiqayotgan har bir tovush ravon holatda bo'lishi uchun bolalar bilan ko'proq ishlash va ularni til savodxonligini yaxshilash uchun ko'p kitob mutolaa qildirish kerak. Bu albatta maktab yoshidagi o'quvchilar uchun. Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarga esa bir qancha metodikalar qo'llagan holda nutqni o'stirish amalga oshiriladi.

Maktab yoshidagi o'quvchilarni o'qish savodxonligini yanada yaxshilash uchun ularga elektron tarzdagi matn videoroliklarini qo'yib berish ham juda yaxshi. Chunki o'quvchi o'sha videorolikni ko'rish orqali matn va hikoyalarni qanday mutolaa qilishni yanada yaxshiroq o'rganadi, huddi o'sha videorolikda so'zlangan ohangda yanada ravon o'qishga intiladi.

Hammaga ma'lum, eshitish va nutq tushunchalari o'zaro bog'liq tushunchalar. Inson eshitgan narsalarini miya yarimsharlari orqali analiz – sintez qiladi va buning oqibatida insonda nutq shakllanadi. Eshitish funksiyasining pasayishi o'z - o'zidan nutq sistemasiga ham tasir qiladi. Chunki insonda eshitish qobilyati yo'q bo'lsa uning nutqi ham o'z - o'zidan asta – sekin yo'qolib borishni boshlaydi. Shunday ekan mana shunday holat kuzatilayotgan maktabgacha ta'lim yoshidagi va maktab yoshidagi bolalarga o'z vaqtida chora tadbirlarni qo'llash muhim hisoblanadi.

Birinchi navbatda bunday bolalar bilan ishlashda ko'proq ko'rgazma qurollar bilan ishlash maqul bo'ladi. Chunki eshitishda kamchligi bo'lgan



bolalarda eshitishdan ko‘ra, ko‘rish va teri taktil sezish organlari kuchliroq rivojlangan. Sababi shundaki, bir organ ishining buzilishi oqibatida ikkinchi organ faoliyatining kuchayishidir. Shuning uchun ham bunday bolalarning o‘qish savodxonligi va nutqini o‘stirish uchun turli narsa – buyumlar, rasmlar ko‘rsatish eng yaxshi yo‘l hisoblanadi. Chunki bunday bolalarda ko‘rish orqali eslab qolish kuchliroqdir.

Bundan tashqari maktabgacha talim yoshidagi bolalarda nutqni rivojlantirishda ular bilan suhbat o‘tkazish va o‘yin faoliyatlarini amalga oshirish ham muhim omil bo‘lib xizmat qiladi. Qachonki bolalarda ravon nutq shakllansa, har bir harf talafuzi aniq ko‘rinishga ega bo‘lsa, shundagina butun nutq tizimi yuzaga keladi.

**Xulosa.** Xulosa qilib aytganda, “Nutq o‘stirish”, “Ona tili va o‘qish savodxonligi” darslari hamda “Eshitish ustida ishlash va talaffuzni shakllantirish” mashg‘ulotlari integratsiyasini ta’minlash ta’lim samaradorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur fan va mashg‘ulotlarning o‘zaro uzviy bog‘liqlikda tashkil etilishi o‘quvchilarning nutqiy, eshituv va kommunikativ kompetensiyalarini kompleks ravishda rivojlantirishga xizmat qiladi.

Bir so‘z bilan aytganda, bugungi kun yosh bolajonlari vatan uchun kelajakda yetuk inson bo‘lib shakllanadi. Bunda esa biz kattalarning o‘rni alohida, albatta. Hozirgi yosh avlodlarimizda ta’lim – tarbiyani rivojlantirar ekanmiz, shak - shubhasiz ularning har birida vatanga bo‘lgan muhabbat, kelajakda o‘z kasbining yetuk mutaxasislari bo‘lib yetishishi kabi maqsadlar vujudga keladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati :**

1. Babaeva Dono Razzoqovna: “Nutq o‘stirish metodikasi” , Toshkent-2009.



2. Barno Madibekova: “Nutq o‘stirishda ijodiy ishlar o‘tkazish metodikasi”, Andijon-2010.
3. Rizayeva Shalola: “Nutq o‘stirish metodikasi”, Jizzah-2020-2021.
4. R.Shomahmudova: “To‘g‘ri talaffuzga o‘rgatish va nutq o‘stirish”, Toshkent-“ILM ZIYO”-2013.